makonda tashkil etish imkoniyatini kengaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, raqamli sug'urta ekotizimi alohida texnologik yechimlar majmui emas, balki sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari, banklar, fintech kompaniyalari, elektron tijorat subyektlari, telekommunikatsiya operatorlari, tibbiyot va transport tashkilotlari, davlat axborot tizimlari hamda iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro qiymat yaratish munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi murakkab institutsional-iqtisodiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Raqamli sug'urta ekotizimini shakllantirishning iqtisodiy mohiyati sug'urta xizmatlarini sotish kanallarini elektron shaklga o'tkazish bilangina cheklanmaydi. U sug'urta qiymat zanjirining barcha bosqichlarini — mijozning ehtiyojini aniqlashdan tortib riskni seleksiya qilish, tarifni shakllantirish, polisni rasmiylashtirish, to'lovlarni amalga oshirish, sug'urta hodisasini qayd etish va zararni qoplashgacha bo'lgan jarayonlarni o'zaro integratsiyalashgan raqamli muhitda boshqarishni nazarda tutadi. Bunday ekotizimda ma'lumot asosiy strategik resursga aylanib, platformalar esa bozor ishtirokchilari o'rtasidagi tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, axborot assimetriyasini qisqartirish, sug'urta mahsulotlarini individuallashtirish va xizmatlarning hududiy qamrovini kengaytirish vositasi vazifasini bajaradi. Shu sababli raqamli ekotizimni shakllantirish samaradorligi faqat texnologik infratuzilma bilan emas, balki ishtirokchilarning iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirish, vakolat va javobgarlik chegaralarini belgilash, ma'lumotlar almashinuvi yagona standartlarini joriy etish hamda barqaror institutsional boshqaruv modelini yaratish bilan belgilanadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirish, moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish va sug'urta bozorining institutsional salohiyatini mustahkamlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'RB-730-son Qonun sug'urta munosabatlarining huquqiy asoslarini belgilagan bo'lsa, Prezidentning 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son qarorida sug'urta bozorini jadal raqamlashtirish, barcha sug'urta turlari bo'yicha shartnomalarni yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimida ro'yxatdan o'tkazish hamda elektron polislarni shakllantirish vazifalari belgilangan. Elektron sug'urta xizmatlarini ko'rsatish tartibini tartibga soluvchi normativ hujjatlar hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 23-iyuldagi 458-son qarori ushbu jarayonlarning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yanada aniqlashtirdi. Natijada raqamlashtirish sug'urta kompaniyalarining ixtiyoriy tashabbusi doirasidan chiqib, bozorning umumiy institutsional arxitekturasini qayta shakllantiruvchi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Milliy sug'urta bozorining so'nggi ko'rsatkichlari ham mazkur yo'nalishning iqtisodiy ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda O'zbekistondagi sug'urta tashkilotlari soni 33 tadan 36 taga, ularning umumiy ustav kapitali 2,96 trln so'mdan 4,01 trln so'mga, investitsiyalar hajmi esa 6,5 trln so'mdan 9,6 trln so'mga oshgan. Shu davrda sug'urta mukofotlari hajmi 9,8 trln so'mdan 13,5 trln so'mga, sug'urta to'lovlari esa 2,2 trln so'mdan 3,0 trln so'mga yetgan. Mazkur o'sish bozorning moliyaviy salohiyati kengayayotganini anglatsa-da, sug'urta xizmatlarining ommaviyligi, mahsulotlarning mijozlar ehtiyojlariga mosligi, operatsion jarayonlarning tezkorligi va hududlar kesimidagi qamrov darajasini oshirish bo'yicha tizimli vazifalar saqlanib qolmoqda.

Ayni paytda sug'urta agentlari sonining 2025-yilda 23,3 foizga kamaygani an'anaviy vositachilik modelining transformatsiyalanayotganini hamda raqamli sotuv kanallari, platformaviy vositachilik va elektron agentlik mexanizmlarining ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Bu holatni bevosita sababiy bog'liqlik sifatida emas, balki bozor tuzilmasidagi institutsional o'zgarishning muhim indikatori sifatida baholash mumkin. Raqamli kanallarning kengayishi mijozlarga xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirishi va sug'urta mahsulotlari qamrovini oshirishi mumkin, biroq ushbu jarayon texnologik jihatdan rivojlangan yirik kompaniyalar bilan resurslari cheklangan sug'urtalovchilar o'rtasidagi raqamli tafovutni kuchaytirish ehtimolini ham yuzaga keltiradi. Shuningdek, axborot tizimlarining o'zaro mos emasligi, ma'lumotlarning fragmentatsiyasi, uchinchi tomon platformalariga qaramlik, kibexavfsizlik, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish va algoritmik qarorlarning shaffofligi raqamli sug'urta ekotizimini shakllantirishdagi asosiy institutsional xavflar qatoriga kiradi.

O'zbekistonda qayta sug'urta tizimini rivojlantirish, risklarning milliy iqtisodiyot doirasida maqbul taqsimlanishini ta'minlash ham raqamli sug'urta ekotizimining muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Prezidentning 2025-yil 23-maydagi PQ-191-son qarorida milliy qayta sug'urta bozori hajmini oshirish, qayta sug'urta xizmatlari eksportini kengaytirish va sohaga investitsiyalarni jalb etish bo'yicha aniq maqsadlar belgilangan. Bu esa sug'urta ekotizimini faqat ichki chakana xizmatlar platformasi sifatida emas, balki andarrayting, risklarni qayta taqsimlash, xalqaro qayta sug'urta, investitsiya faoliyati va transchegaraviy moliyaviy xizmatlarni birlashtiruvchi kompleks iqtisodiy tizim sifatida shakllantirish zaruratini kuchaytiradi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarda sug'urta bozorini raqamlashtirish, sug'urta kompaniyalari faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, elektron polislarni, raqamli andarrayting, mijozlar bilan masofaviy ishlash va sug'urta tashkilotlari samaradorligini baholash masalalari nisbatan keng yoritilgan. Biroq milliy sug'urta bozorida barcha manfaatdor subyektlarni yagona qiymat yaratish zanjiriga birlashtiradigan, ularning iqtisodiy manfaatlari, funksional vakolatlari, ma'lumotlar almashinuvi, xarajatlar va daromadlar taqsimoti hamda javobgarlik mexanizmlarini kompleks qamrab oluvchi raqamli ekotizimning tashkiliy-iqtisodiy modeli yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Dissertatsiya tadqiqotida sug'urta ekotizimlari raqamli mahsulotlar va integratsiya darajasiga



ko'ra tasniflanib, axborot texnologiyalari, raqamli platformalar va tarmoq infratuzilmalarining integratsiyasiga asoslangan sektorlararo ekotizim eng samarali model sifatida asoslangan. Shu bilan birga, ekotizim tashabbuskori, hamkor tashkilotlar va mustaqil faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyalari samaradorligining turlicha shakllanishi ekotizim ichidagi iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirish masalasini alohida tadqiq etishni talab qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirish, uning institutsional asoslarini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan. R.S. Azimov sug'urta biznesining raqamli transformatsiyasini iqtisodiyot subyektlari faoliyatini modernizatsiya qilish va risklarni boshqarish samaradorligini oshirish omili sifatida baholaydi. Q.M. Qo'ldoshev sug'urta munosabatlarining kooperatsion va institutsional shakllarini tadqiq etib, sug'urta bozori ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini asoslaydi. X.M. Shennayev O'zbekiston sug'urta bozorining tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini yoritib, bozor infratuzilmasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratadi. N.A. Mavrulova umumiy sug'urta sohasini rivojlantirishda xizmatlarni diversifikatsiya qilish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini o'rgangan. K. Ikramova esa sug'urta faoliyatida moliyaviy texnologiyalar, raqamli platformalar va innovatsion xizmatlarning qo'llanilishi sug'urta operatsiyalarining tezkorligi hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishini ta'kidlaydi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda raqamli sug'urta ekotizimi sug'urta kompaniyalari, texnologik platformalar, moliyaviy vositachilar va iste'molchilar o'rtasidagi integratsiyalashgan munosabatlar tizimi sifatida talqin qilinadi. J.F. Outreville sug'urta bozorining rivojlanishi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etib, sug'urta institutlarining kapital jamg'arilishi, investitsiyalar va iqtisodiy barqarorlikdagi rolini asoslaydi. M. Eling raqamlashtirish sug'urta qiymat zanjirining mahsulot yaratish, anderryting, sotuv va da'volarni tartibga solish kabi barcha bosqichlariga ta'sir ko'rsatishini aniqlagan.

A. Bohnert sug'urta kompaniyalarida alohida raqamli loyihalarni emas, balki kompleks raqamli strategiyani shakllantirish korporativ samaradorlikning muhim sharti ekanligini ko'rsatadi. E. Stoeckli InsurTech innovatsiyalarining sug'urta qiymatini yaratish jarayoniga ta'sirini tadqiq etib, yangi texnologik yechimlar an'anaviy sug'urta biznes-modellarini o'zgartirishi va bozor ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishini asoslaydi. P. Marano raqamli sug'urta vositachilari va platformalarining rivojlanishini iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, ma'lumotlar xavfsizligi va tartibga solish mexanizmlarini yangilash zarurati bilan bog'laydi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda sug'urta bozorini raqamlashtirish, moliyaviy texnologiyalarni joriy etish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish va sug'urta kompaniyalari samaradorligini oshirish masalalari yetarlicha yoritilgan. Biroq O'zbekiston sharoitida sug'urta tashkilotlari, banklar, fintech kompaniyalari, davlat axborot tizimlari, elektron savdo platformalari va iste'molchilarni yagona raqamli muhitda birlashtiruvchi sug'urta ekotizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari kompleks tarzda tadqiq etilmagan. Shu sababli milliy bozorning huquqiy, iqtisodiy va texnologik xususiyatlarini hisobga olgan raqamli sug'urta ekotizimi modelini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda raqamli sug'urta ekotizimini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini baholash uchun tizimli, institutsional va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston sug'urta bozori, uning professional ishtirokchilari, davlat axborot tizimlari, banklar, fintech kompaniyalari hamda elektron xizmat ko'rsatish platformalari o'rtasidagi iqtisodiy va texnologik munosabatlar belgilandi. Tadqiqot predmeti esa raqamli sug'urta ekotizimini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy va institutsional mexanizmlardan iborat.

Tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasining sug'urta faoliyati, raqamli iqtisodiyot, elektron xizmatlar, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik sohalariga oid normativ-huquqiy hujjatlar, vakolatli davlat organlarining rasmiy statistik ma'lumotlari hamda sug'urta tashkilotlarining ochiq hisobotlari o'rganildi. Sug'urta bozori rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, jumladan, sug'urta mukofotlari, sug'urta to'lovlari, investitsiyalar, ustav kapitali, elektron polislar va raqamli xizmatlar dinamikasi statistik hamda trend tahlili asosida baholandi.

Raqamli ekotizimning tarkibiy elementlari sug'urta xizmatlari qiymat zanjiri doirasida tahlil qilinib, bozor ishtirokchilari o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvi, platformaviy integratsiya, tranzaksiya xarajatlari va iqtisodiy manfaatlarning taqsimlanishi o'rganildi. Xalqaro tajribani milliy amaliyot bilan qiyoslash orqali O'zbekiston



sug'urta bozorining institutsional xususiyatlariga mos ekotizim modelini shakllantirish imkoniyatlari aniqlandi. Olingan natijalar mantiqiy umumlashtirish va ilmiy abstraksiyalash usullari orqali tizimlashtirilib, raqamli sug'urta ekotizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy takliflarni ishlab chiqish uchun asos sifatida qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda raqamli sug'urta ekotizimini shakllantirish imkoniyatlarini baholashda sug'urta bozorining miqdoriy o'sishi, iqtisodiyotdagi ulushi, institutsional tarkibi, investitsiya salohiyati hamda distributsiya kanallaridagi tarkibiy o'zgarishlar asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. 2025-yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti amaldagi narxlarda 1 849,7 trln so'mni tashkil etib, real hisobda 7,7 foizga o'sgan. Shu davrda jami sug'urta mukofotlari 13 463,5 mlrd so'mga yetib, 2024-yilga nisbatan 37,8 foizga ko'paygan. Demak, sug'urta bozorining nominal o'sish sur'ati iqtisodiyotning umumiy kengayishidan yuqori bo'lib, bu sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning faollashuvi, yangi mahsulotlarning joriy etilishi va elektron sotuv mexanizmlarining kengayishi bilan izohlanadi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda raqamli sug'urta ekotizimini shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy bozor indikatorlari

Ko'rsatkich	2024-yil	2025-yil	O'zgarish yoki hisoblangan natija
Jami sug'urta mukofotlari	9 770,1 mlrd so'm	13 463,5 mlrd so'm	+37,8%
Sug'urta penetratsiyasi	0,636%	0,728%	+0,092 foiz punkt
Sug'urta to'lovlari	2 204,5 mlrd so'm	2 985,5 mlrd so'm	+35,4%
To'lovlar va mukofotlar nisbati	22,56%	22,17%	-0,39 foiz punkt
Sug'urtalovchilar investitsiyalari	6 542,6 mlrd so'm	9 550,0 mlrd so'm	+46,0%
Sug'urta tashkilotlari soni	33 ta	36 ta	+9,1%
Sug'urta agentlari soni	4 804 ta	3 684 ta	-23,3%
Amaldagi sug'urta shartnomalari	10,49 mln ta	13,06 mln ta	+24,5%
Hayot sug'urtasining mukofotlardagi ulushi	2,9%	4,4%	Mukofotlar +104,8%

Manba: Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi, OECD va Swiss Re Institute ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

O'zbekistonda raqamli sug'urta ekotizimini shakllantirish imkoniyatlarini baholashda sug'urta bozorining miqdoriy o'sishi, iqtisodiyotdagi ulushi, institutsional tarkibi, investitsiya salohiyati hamda distributsiya kanallaridagi tarkibiy o'zgarishlar asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. 2025-yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti amaldagi narxlarda 1 849,7 trln so'mni tashkil etib, real hisobda 7,7 foizga o'sgan. Shu davrda jami sug'urta mukofotlari 13 463,5 mlrd so'mga yetib, 2024-yilga nisbatan 37,8 foizga ko'paygan. Demak, sug'urta bozorining nominal o'sish sur'ati iqtisodiyotning umumiy kengayishidan yuqori bo'lib, bu sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning faollashuvi, yangi mahsulotlarning joriy etilishi va elektron sotuv mexanizmlarining kengayishi bilan izohlanadi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonda sug'urta penetratsiyasi 2024-yildagi 0,636 foizdan 2025-yilda 0,728 foizga ko'tarilgan. Biroq 2024-yil ko'rsatkichi OECD mamlakatlaridagi o'rtacha darajadan qariyb 9,7 marta, hisobot taqdim etgan barcha yurisdiksiyalar o'rtachasidan esa 8,5 marta pastdir. Bu tafovut milliy bozorda foydalanilmagan talab va katta sug'urta bo'shlig'i mavjudligini ko'rsatadi. Shuning uchun raqamli ekotizimni shakllantirish faqat operatsion xarajatlarni qisqartirish vositasi emas, balki sug'urta xizmatlarini ommalashtirish, hududiy va ijtimoiy qamrovni kengaytirish hamda iqtisodiyotdagi himoyalangan risklarni sug'urta mexanizmlariga jalb etishning strategik sharti hisoblanadi. OECD ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda sug'urta penetratsiyasi OECD mamlakatlarida o'rtacha 6,2 foizni, barcha hisobot beruvchi yurisdiksiyalarda esa 5,4 foizni tashkil etgan.


2025-yilda sug'urtalovchilarning investitsiyalari 46 foizga oshib, 9,55 trln so'mga yetgan. Shunga qaramay, investitsiya portfelining 63,2 foizi bank depozitlariga, 14,6 foizi qimmatli qog'ozlarga va 17,4 foizi



ko'chmas mulkka yo'naltirilgan. Depozitlarning yuqori ulushi likvidlik va nisbatan past riskni ta'minlasa-da, investitsiya portfelining yetarlicha diversifikatsiya qilinmaganini ko'rsatadi. Raqamli sug'urta ekotizimi doirasida sug'urtalovchilarning investitsiya salohiyatini InsurTech kompaniyalari, ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari, kiberxavfsizlik infratuzilmasi va platformaviy mahsulotlarga yo'naltirish uchun maxsus sheriklik mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Bozorning institutsional tarkibida qarama-qarshi tendensiyalar kuzatilmoqda. Bir tomondan, sug'urta tashkilotlari soni 33 tadan 36 taga, brokerlar soni 11 tadan 12 taga va aktuariylar soni 5 tadan 7 taga oshgan. Ikkinchi tomondan, sug'urta agentlari soni 23,3 foizga qisqargan. Mazkur holat an'anaviy agentlik sotuvlarining butunlay yo'qolishini emas, balki ularning elektron agentlar, marketpleyslar, bank ilovalari va boshqa raqamli vositachilik shakllari bilan bosqichma-bosqich integratsiyalashishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2024-yilda sug'urta mukofotlarining 74,3 foizi bozorning eng yirik o'nta kompaniyasi hissasiga, 59,5 foizi beshta kompaniyaga va 41,2 foizi ikki yirik sug'urtalovchiga to'g'ri kelgan.

Xalqaro bozor ko'rsatkichlari raqamli ekotizimning risklarni taqsimlashdagi rolini yanada aniq namoyon etadi. Swiss Re Institute ma'lumotlariga ko'ra, global mol-mulk va javobgarlik sug'urtasi bozori 2,4 trln AQSh dollariga yetgan. 2014–2024-yillarda ushbu segment mukofotlarining nominal yillik o'sishi 4,3 foizni tashkil etib, jahon YAIMining 3,3 foizlik o'sishidan yuqori bo'lgan. Shu bilan birga, sug'urta qiymat zanjirining brokerlar, texnologik provayderlar, qayta sug'urtalovchilar va ixtisoslashgan risk tashuvchilar o'rtasida taqsimlanishi operatsion samaradorlikni oshirgan, ammo nazorat va uchinchi tomon risklarini kuchaytirgan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda YAIM va sug'urta mukofotlari o'rtasidagi ekonometrik bog'liqlik, 2021–2025-yillar 2021–2025-yillardagi ma'lumotlar asosida tuzilgan logarifmik regressiya quyidagi ko'rinishga ega:

$$\ln(\text{SM}) = -9,205 + 1,572 \ln(\text{YAIM}),$$

bu yerda **SM** — sug'urta mukofotlari hajmi, **YAIM** — yalpi ichki mahsulot hajmi. Modelning determinatsiya koeffitsiyenti **R²=0,968** ni tashkil etdi. Hisoblangan 1,572 elastiklik koeffitsiyenti tahlil davrida YAIMning 1 foizga o'zgarishi sug'urta mukofotlari hajmining o'rtacha 1,57 foizga o'zgarishi bilan statistik jihatdan bog'langanini ko'rsatadi. 2021–2025-yillarda sug'urta mukofotlarining o'rtacha yillik nominal o'sish sur'ati 37,8 foizni, YAIMniki esa 21,1 foizni tashkil etgan. Natijada sug'urta penetratsiyasi 0,433 foizdan 0,728 foizgacha oshgan.

Mazkur ekonometrik natija sug'urta bozorining iqtisodiy faollikka nisbatan yuqori sezgirligini ko'rsatsa-da, uni bevosita sababiy bog'liqlik sifatida talqin qilish mumkin emas. Kuzatuvlar sonining cheklanganligi, ko'rsatkichlarning nominal qiymatlarda ifodalanishi hamda inflyatsiya, tarif siyosati va majburiy sug'urta talablarining birgalikdagi ta'siri modelning asosiy cheklavlari hisoblanadi. Shunga qaramay, aniqlangan yuqori bog'liqlik iqtisodiyot kengaygan sari sug'urta xizmatlarini raqamli kanallar orqali tezkor taklif qilish, bank, transport, tibbiyot, elektron savdo va davlat axborot tizimlari bilan integratsiyani jadallashtirish bozor o'sishini qo'llab-quvvatlashini asoslaydi.

Tahlil natijasida O'zbekistonda raqamli sug'urta ekotizimini shakllantirish uchun moliyaviy va institutsional zamin mavjudligi aniqlandi. Biroq bozor hajmining tez o'sishi sug'urta penetratsiyasining xalqaro ko'rsatkichlardan sezilarli darajada ortda qolishini bartaraf etmagan. Shu sababli samarali model sug'urtalovchilarning alohida



korporativ platformalarini yaratish bilan cheklanmasdan, yagona axborot standartlari, ochiq API, elektron agentlar, bank va fintech xizmatlari, davlat reyestrlari, tibbiyot va transport ma'lumotlarini o'zaro bog'laydigan sektorlararo raqamli arxitekturaga asoslanishi lozim. Dissertatsiyada asoslangan to'qqiz turdagi ehtimoliy ekotizim orasida aynan axborot texnologiyalari, raqamli platformalar va tarmoq infratuzilmasining integratsiyasiga asoslangan sektorlararo model milliy bozor uchun eng yuqori tashkiliy-iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi yo'nalish sifatida baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda raqamli sug'urta ekotizimini shakllantirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, institutsional va texnologik imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Sug'urta mukofotlari, investitsiyalar va shartnomalar sonining o'sishi bozorning rivojlanayotganini tasdiqlaydi. Biroq sug'urta xizmatlarining YAIMdagi ulushi xalqaro ko'rsatkichlarga nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu holat aholining va tadbirkorlik subyektlarining sug'urta bilan qamrovini kengaytirish, xizmatlarni raqamli kanallar orqali soddalashtirish hamda bozor ishtirokchilari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Raqamli sug'urta ekotizimini samarali shakllantirish uchun sug'urta tashkilotlari, banklar, fintech kompaniyalari, davlat axborot tizimlari, tibbiyot, transport va elektron savdo platformalari o'rtasida yagona ma'lumot almashinuvi mexanizmini joriy etish lozim. Bunda ochiq API standartlari, elektron sug'urta agentlari, yagona polis reyestri, masofaviy identifikatsiya, avtomatlashtirilgan andarrayting va sug'urta da'volarini raqamli tartibga solish tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlik, algoritmik qarorlarning shaffofligi va platforma operatorlarining javobgarligini huquqiy jihatdan mustahkamlash talab etiladi.

Sug'urta bozorining barqaror rivojlanishi uchun kichik va o'rta sug'urta kompaniyalarining raqamli platformalarga teng shartlarda ulanishi ta'minlanishi, InsurTech loyihalarini moliyalashtirish va sinovdan o'tkazish mexanizmlari kengaytirilishi maqsadga muvofiq. Raqamli ekotizimni bosqichma-bosqich joriy etish natijasida operatsion xarajatlar kamayadi, sug'urta xizmatlari sifati va tezkorligi oshadi, bozor qamrovi kengayadi hamda milliy sug'urta tizimining raqobatbardoshligi mustahkamlanadi. Shu jihatdan sektorlararo integratsiyaga asoslangan raqamli sug'urta ekotizimi O'zbekiston sug'urta bozorini transformatsiyalashning ustuvor yo'nalishi sifatida baholanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-730-son Qonuni. <https://www.lex.uz/ru/docs/-5739117?ONDATE=17.04.2025%2000>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-108-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6824178>
3. Azimov R.S. *Digital Transformation of the Insurance Business as a Factor in the Small Business and Private Entrepreneurship Digitalization* // Applied Sciences Research Periodicals. – 2025. – 20-fevral.
4. Shennayev X.M. *O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari*: monografiya. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 336 b.
5. Ikramova K. *Sug'urtada moliyaviy texnologiyalar: raqamli transformatsiya va innovatsiyalar* // Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar. – 2025. – № 4.
6. Eling M., Lehmann M. *The Impact of Digitalization on the Insurance Value Chain and the Insurability of Risks* // *The Geneva Papers on Risk and Insurance – Issues and Practice*. – 2018. – Vol. 43, No. 3. – P. 359–396. DOI: 10.1057/s41288-017-0073-0.
7. Stoeckli E., Dremel C., Ueberrnickel F. *Exploring Characteristics and Transformational Capabilities of InsurTech Innovations to Understand Insurance Value Creation in a Digital World* // *Electronic Markets*. – 2018. – Vol. 28, No. 3. – P. 287–305. DOI: 10.1007/s12525-018-0304-7.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>